

3. Shekspir Vilyam "Pesalar", Gamlet, Otello, qirol Lir, Yuliy Sezar, Romeo va Juletta. T., O'zadabiynashr. 1960 yil.

4. Kazan, H. N. (2023). ENHANCING SPEECH SKILLS IN FUTURE FOREIGN LANGUAGE LEARNERS THROUGH MEDIA LITERACY. International Journal of Advance Scientific Research, 3(11), 68-76.

5. Nadirova-Kazan, H. (2023, November). THE IMPACT OF MEDIA LITERACY ON THE DEVELOPMENT OF SPEECH SKILLS: A COMPREHENSIVE ANALYSIS. In Next Scientists Conferences (pp. 22-25).

JAMIYAT BARQAROR TARAQQIYOTINI TA'MINLASHDA FUQAROLAR SIYOSIY ISHTIROKIGA OID KONSEPTUAL YONDASHUVLAR

Erkinov Ixomjon Elmurodjon o'g'li
O'zbekiston Milliy Universiteti

Annotatsiya



Mazkur maqolada davlat va jamiyat taraqqiyotida fuqarolarning siyosiy ishtirokini takomillashtirishga oid yondashuvlar, siyosiy ishtirokning shakllari, ijtimoiy faollikning o'ziga xos xususiyatlariga urg'u berilgan. Fuqarolarning siyosiy jarayonlardagi siyosiy ishtirokining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish bizga zamonaviy jamiyatning ijtimoiy-siyosiy dinamikasini o'rganish hamda siyosiy ishtirok etish shakllarining jarayonga ta'sirini kuzatish imkonini berishi asoslandi.

Kalit so'zlari: Barqaror taraqqiyot, siyosiy ishtirok, siyosiy ishtirok shakllari, siyosiy ishtirok turlar, ichki siyosiy munosabatlar, siyosiy modernizatsiya, siyosiy rivojlanish, siyosiy madaniyat, siyosiy partiyalar, ijtimoiy faollik, siyosiy qarorlar, siyosiy hokimiyat.

Аннотация

В данной статье акцентируются подходы к совершенствованию политического участия граждан в развитии государства и общества, формы политического участия, особенности социальной деятельности. Утверждалось, что изучение особенностей политического участия граждан в политических процессах позволяет изучить социально-политическую динамику современного общества и наблюдать влияние форм политического участия на этот процесс.

Ключевые слова: Устойчивое развитие, политическое участие, формы политического участия, типы политического участия, внутривнутриполитические отношения, политическая модернизация, политическое развитие, политическая культура, политические партии, общественная активность, политические решения, политическая власть.

Annotation

In this article emphasizes the approaches to improving the political participation of citizens in the development of the state and society, the forms of political participation, and the specific features of social activity. It was argued that studying the specific features of citizens' political participation in political processes allows us to study the socio-political dynamics of modern society and observe the influence of forms of political participation on the process.

Key words: Sustainable development, political participation, forms of political participation, types of political participation, internal political relations, political modernization, political development, political culture, political parties, social activity, political decisions, political power.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab global iqtisodiy rivojlanish va xalqaro munosabatlardagi turli o'zgarishlar jahon hamjamiyati oldida uzoq muddatga mo'ljallangan strategik rivojlanish dasturini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltirish bilan birga, barqaror taraqqiyot konsepsiyasini ishlab chiqishni taqozo etdi. Bu dunyoda iqlim bilan bog'liq turli salbiy o'zgarishlar, ekologik muammolarning rivojlanishga ta'siri natijasida vujudga keldi. Ushbu davrda xalqaro hamjamiyat atrof-muhitni asrash butun insoniyat uchun muhim masala ekanligini anglab yeta boshladi.

Shu bois, dastlab 1963 yilda insoniyatning atrof-muhitga ta'siri tahlilini o'z ichiga olgan Xalqaro biologik dastur ishlab chiqildi. 1968 yilda Rim klubi tashkil qilindi. Uning faoliyati barqaror taraqqiyot konsepsiyasi shakllanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Xususan, klub tomonidan tayyorlangan "O'sish meyorlari" tahliliy ma'ruzasi bu borada hal qiluvchi rol o'ynadi. Shu o'rinda Rim klubining asoschisi A.Pechcheining quyidagi fikri diqqatga sazovor: "endilikda dunyoda bir-biridan alohida bo'lgan iqtisodiy, texnik yoki ijtimoiy muammolar mavjud emas"¹². Bizningcha, A.Pechchei bu orqali barqaror taraqqiyot uchun barcha resurs va imkoniyatlarni birgalikda safarbar etish lozimligiga urg'u beradi.

"Barqaror taraqqiyot" atamasi birinchi marta 1972 yili atrof-muhit bo'yicha birinchi Butunjahon konferensiyasida (Stokgolm, Shvetsiya) qo'llangan. 1987 yilda esa Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) atrof-muhit va rivojlanish konferensiyasida (Rio-de-Janeyro, Braziliya) mazkur atama (ingl. "sustainable development") insoniyatni saqlab qoluvchi yangi konsepsiya sifatida e'tirof etilgan¹³. Bunda asosiy urg'u insoniyat oldida turgan turli ekologik tahdid va xavf-xatarlarga qarshi turish hamda inson tamaddunini rivojlantirish masalalariga qaratilgan. Ahamiyatlisi, mazkur konferensiya "so'nggi imkoniyat" shiori ostida bo'lib o'tgan, uning zamirida Yer sayyorasini insoniyat hayoti uchun saqlab qolish nazarda tutilgan. Barqaror taraqqiyot konsepsiyasi 1992 yil iyun oyida davlat va hukumat rahbarlari ishtirokida Rio-de-Janeyroda bo'lib o'tgan BMTning atrof-muhit va rivojlanish konferensiyasida qabul qilindi¹⁴.

Siyosiy manfaatlarni amalga oshiradigan shaxsning siyosiy faoliyati siyosiy munosabatlarni rivojlantirish mezonlari sifatida qaraladi. Demokratik jamiyatdagi fuqarolar siyosatga qiziqishi, siyosiy jarayonlarga jalb qilinishi va siyosatga oid bo'lgan ma'lum bilimlarning mavjudligi bilan ajralib turadi. Ya'ni, siyosiy faol shaxsning sifati faol fuqarolikka aylanadi va u jamiyatning barqaror taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Bunday shaxsni siyosatda yuksak va ongli ravishda jalb qilishni, jamiyat manfaatlariga sodiqlikni, ushbu manfaatlar uchun qurbonlik qilishga tayyorligini bildiradi. Qadimgi yunon polislarida bunday sifatlar vatanparvarlikning eng yuqori shakli deb baholandi. Imperiya va monarxiya shaklidagi boshqaruvlarda bunday fuqarolik "sodiqlik" tushunchasini anglatadi. Sodiqlik – hokimiyatga hurmat va amaldagi qonunlarga sadoqatdir. Zamonaviy siyosiy tizimlarda fuqarolik jamiyati bilan davlat tizimi mos kelmaydi. Shuning uchun "fuqarolik" konsepsiyasi mazmuni o'zgaradi va endi "sodiqlik" tushunchasi bilan mos kelmaydi. Fuqarolikning namoyishi insonning huquqlari va erkinliklari uchun kurash bilan bog'liqdir. Fuqarolik pozitsiyasi konformizmga qarama-qarshidir, ya'ni ular bilan kelishmovchilik bo'lgan taqdirda ham jamiyatdagi hukmron munosabatlarga qarshilik ko'rsatilmaydi.

Har qanday jamiyatda ham, katta yoki kichik darajadagi siyosiy passivlik mavjud bo'ladi. Bu jamiyat va davlat ishlaridan qochish bilan ifodalanishi mumkin. Siyosiy passivlikning ushbu formasi absenteizm (lot. absens, absentis — bo'shliq, angl. absenteeism), ya'ni odamlarning siyosiy hayotga befarq munosabatda bo'lish hodisasi bo'lib, fuqarolarning saylovlarda va yig'ilishlarda ishtirok etishni rad etishidir. Bunday holda, fuqarolar hatto kichik guruh darajasida ham siyosatga qiziqmaydi. Umumiy qilib aytganda, ular atrof-dagi munosabatlardan qoniqish his etmaydi. Jamiyatda ishsizlik, qashshoqlik va ijtimoiy himoyaning mavjud emasligi absenteizm kayfiyatini oshirib yuboradi. Ushbu holatning o'sishi siyosiy munosabatlar tizimidagi inqirozni ko'rsatishi mumkin. Siyosiy apatiya – siyosiy befarqlik, bu shaxsning siyosiy voqealar, siyosiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatishga qodir emasligi yoki xohlamaslikni anglatadi.

Siyosiy jarayonlarda fuqarolarning o'zi shaxsan xohlab ishtirok etishi mumkin. Yoki ma'lum guruh, jamoaviy yoki partiyaning a'zosi sifatida manfaatlarni ko'zlab ishtirok etadi.

Yuqoridagi turli qarashlar va ta'limotlarni o'rganish barobarida "siyosiy faollik" tushunchasiga quyidagicha ta'rif keltiriladi, ya'ni siyosiy faollik bu fuqarolarning hayotiy muhim

¹² Печчеи А. Человеческие качества. - М.: Прогресс, 1985. 119–120 с.

¹³ Ушбу атама муаллифи сифатида 1980-йилларнинг иккинчи ярмида БМТнинг атроф-мухит ва ривожланиш комиссияси раҳбари сифатида фаолият юритган Г.Х. Брунтланн (Норвегия) қайд этилади.

¹⁴ Рио-де-Жанейрская декларация по окружающей среде и развитию. 1992. URL: http://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/riodecl.

masalalarda o‘zaro jamoaviy manfaatlarni ro‘yobga chiqarish maqsadida hamkorlikdagi faoliyatidir.

Bunday faollik jamiyat hayotidagi muhim jarayonlar bo‘lib, ushbu jarayonlar fuqarolarning maqsadi hamda manfaati uchun xizmat qiladigan ijtimoiy-siyosiy faoliyatdir. Ana shunday ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda bugungi kunda fuqarolardan faol ishtirok etish talab qilinadi. Bunday faollikni oshirishda fuqarolik jamiyatining turli tashkilotlari hamda ijtimoiy tarmoqlarning ahamiyati muhimdir.

Siyosiy jarayonlarda ishtirok etuvchi subyektlar siyosiy jarayon ishtirokchisi deyiladi.

Siyosiy ishtirok ijtimoiy-siyosiy jamoa a‘zolarining ichki siyosiy munosabatlar va hokimiyat tarkibiga jalb etilganligini (muayyan bosqichda esa xalqaro hamjamiyat munosabatlariga ham) bildiradi. U demokratik konseptsiyalarda, siyosiy modernizatsiya va siyosiy rivojlanish, siyosiy madaniyat, siyosiy partiyalar faoliyatida asosiy tushunchalardan biri sifatida qo‘llaniladi.

Siyosiy ishtirok subyektlariga fuqarolar, ijtimoiy guruhlar va qatlamlar, siyosiy va jamoatchilik institutlari kiradi.

Ko‘lami jihatidan siyosiy ishtirok: mahalliy, mintaqaviy, umumdavlat va xalqaro siyosat darajasida amalga oshiriladi.

Siyosiy ishtirok to‘g‘ridan-to‘g‘ri (bevosita) va bilvosita amalga oshirilishi mumkin, shuningdek, umumiy va cheklangan; ixtiyoriy va majburiy; an‘anaviy, faol va passiv, legitim va nolegitim, qonuniy va qonunga xilof bo‘lishi mumkin¹⁵.

Siyosiy ishtirok shakllari ham turlicha. Ularga:

- axborot qabul qilish va uzatish;
- siyosat va davlat arboblari hamda tashkilotlari bilan muloqot;
- saylov va boshqa siyosiy kampaniyalarda ishtirok;
- namoyishlarda, siyosiy ish tashlashlarda, ommaviy norozilik harakatlarida, ozodlik urushlarida;
- boshqaruv va o‘z-o‘zini boshqaruvda,
- qonunlar yaratish, ularni qilish va ularga amal qilishda;
- siyosiy partiyalar va ijtimoiy-siyosiy xarakterli faoliyatidagi ishtirok kiradi¹⁶. himoya

Siyosiy ishtirok uchun eng qulay sharoitni demokratik va huquqiy davlatlar yaratadi. Siyosiy jarayonlarda ishtirok etish siyosiy faoliyat deyiladi.

Ishtirok etish omillari nihoyatda turli-tuman bo‘lib, ular individlarning siyosiy hayotda o‘ynaydigan rollariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqdir. G.Almond talqiniga binoan, “rol” – bu individning saylovchi, partiya faoli, parlament a‘zosi bo‘lishi mumkinligini tasdiqlovchi siyosiy faoliyatning (“qismi”) bir ko‘rinishidir. Shuningdek, shaxsning davlat (partiya, jamiyat va hokazo) oldidamajburiyati (mas‘uliyati) va imkoniyatiga muvofiq har bir siyosiy rol o‘zining faraz qilingan funksional burch va vazifalariga ega bo‘ladi.

Siyosiy ishtirok omillarini tushunish uning tabiatini va individni siyosatdagi rolini sharhlashda muhim ahamiyatga egadir. Umumiy jihatdan siyosiy ishtirok omillari an‘anaviy tarzda uning ikkita ulkan mexanizmi orqali ko‘rib chiqiladi: individga nisbatan tashqi ta‘sirni tirkab turadigan, shu bilan birga, individning siyosatda mustaqil ishtirok etish xususiyatini e‘tiborga olgan (T.Gobbs) hokimiyatning oqillik va cheklanganlik doirasidagi majburlash va shaxsning murakkab tuzilmaviylikini va individ xatti-harakati ichki tuzilmalarini (A.Smit, G.Spenser) e‘tirof etish asosidagi manfaat¹⁷.

Hozirgi siyosatshunoslik fanida siyosiy ishtirokning shart-sharoitlari va omillarini (yuzaga keltiradigan sabablar) farqlashga alohida e‘tibor berilgan.

¹⁵ Жўраев Н. “Тарих фалсафасининг назарий асослари” Тошкент: 2008. 73-б.

¹⁶ Политология. Ўқув қўлланма. (муаллифлар жамоаси) Х.Қосимова 2-бўлим. 3-мавзу. А.Қодирий номидаги халқ меъроси нашриёти. "ЎАЖБНТ" маркази. -Т.: 2002. - 283 бет. 58-бет

¹⁷ Қирғизбоев М. Сиёсатшунослик. Олий ўқув юртлари талабалари учун ўқув қўлланма. Тошкент “Янги аср авлоди” 2013 йил. 518 б.

Davlat siyosati va davlat boshqaruviga ta'sir qilish xarakteri nafaqat fuqarolarning faollik darajasiga, balki xalq tomonidan davlat hokimiyati organlariga saylangan vakillar bilan elektorat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga ham bog'liqdir. Tarixan bu kabi o'zaro munosabatlarning ikkita asosiy konsepsiyasi shakllandi. Birinchi konsepsiya o'z manbalariga ko'ra buyuk fransuz inqilobi va J.J.Russoning hukmdorlar va itoatgo'ylar manfaatlarining o'xshashligi g'oyasiga asoslandi. Unga muvofiq ravishda manfaatlar vakilligi qoidasi inkor etiladi: "xalq irodasini vakillik bilan ifodalab bo'lmaydi". Bu konsepsiya deputatlarning faoliyati umumxalq irodasini ifodalashi uchun aholining jiddiy talab va topshiriqlarini yetkazib turishdan iborat bo'lgan xalq deputatlari kengashlari hayotida o'z ifodasini topdi.

Ikkinchi konsepsiyaning mohiyati Edmund Berkning 1776 yildagi Bristolda saylovchilar oldidagi mashhur nutqida ifodalangan bo'lib, u quyidagi ikkita asosiy qoidadan iborat:

1) parlamentga saylangan siyosatchi o'zining intellektual darajasi, kompetensiyasi darajasi bo'yicha o'zi saylanayotgan saylov okrugi aholisining o'rtacha darajasidan yuqori bo'lishi lozim;

2) hayotning barcha hodisalari uchun ham saylovchilar topshiriqlar (nakazlar) beravermasligi lozim. Elektorat o'z mintaqasi doirasiga tegishli nakazlar berishi mumkin, lekin parlamentdagi siyosatchi butun mamlakat manfaatlaridan kelib chiqib faoliyat ko'rsatishi lozim. Uning o'zi muayyan va aniq vaziyatlarda mamlakat va mintaqa manfaatlarini mutanosiblashtirish darajasini topishi zarur¹⁸.

Bunday yondashuvga muvofiq, xalq vakillari va ularni vakil etgan saylovchilar o'rtasida vakolatlar va ishonchga asoslangan ma'lum bir munosabatlar o'rnatilishi lozim. Shu tariqa, chegaradan chiqmaydigan, konstitutsiyada belgilab qo'yilgan mustaqillikka amal qilinadi, shuningdek, deputat siyosiy va huquqiy kompetentlikka ega bo'ladi, boshqa tomondan esa deputat xalq tomonidan ma'lum bir muddatga berilgan vakolatga ega bo'ladi. Bu kabi yondashuv aholining davlat hokimiyatida bevosita ishtirok etishiga nisbatan xalq tomonidan saylangan vakillarning mas'ullik prinsiplarini amalga oshirishlariga ko'proq tabor qaratadi.

Mamlakatimiz hozirgi demokratik rivojining asosiy yo'li – siyosiy jarayonlardagi tashabbus, faollik, ijodkorlik va sog'lom raqobatni rag'batlantirish hamda uning huquqiy asoslarini takomillashtirishdan iborat. Bugungi kunda fuqarolarning turmushimizda sodir bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishini rag'batlantirish yo'li bilan o'rtaga qo'yilgan maqsadga erishish ayni muddaodir.

Shuning uchun ham, siyosiy jarayonlarda fuqarolarning siyosiy faolligi bu jamiyatda demokratiyaning yanada kuchayishiga olib keladi. Jamiyat hayotining demokratlashuvi fuqarolardan fuqaroviy, ijtimoiy-siyosiy faollikni talab qiladi.

Fuqaroviy faollikni faollik nuqtai nazaridan shartli ravishda darajalarga ham ajratish mumkin. Fuqaro mas'uliyatli, ongli va vijdonli bo'lsa, u dastlabki pog'onada, ya'ni fuqaroviy xususiyatlarga ega bo'lgan shaxslar qatoriga kiritish mumkin. Agar fuqaroda atrofda bo'layotgan voqea-hodisalarga nisbatan ma'lum bir munosabati shakllangan bo'lsa, uni fuqaroviy pozitsiyasiga ega bo'lgan shaxs sifatida e'tirof etish mumkin. Agar fuqaroda o'z haq-huquqlari hamda burchi uchun amaliy harakatni bajarish ko'nikmasi mavjud bo'lsa, uni faol fuqaro sirasiga kiritish mumkin.

Aynan ana shu so'nggi pog'onaning o'zi bir necha jihatlar bilan ajralib turadi. Faol fuqaro guruhiga mansub kishilar siyosiy va iqtisodiy tizim to'g'risida bilim olishga tayyor bo'lgan kishilardan iborat bo'ladi. Bundan tashqari ularda o'z haq-huquqlarini faol amalga oshirish uchun bilim va qobiliyat hamda ana shu bilimlarni joriy qilish uchun ko'nikmalar mavjud bo'ladi¹⁹.

Fuqaroviy faollikni ijtimoiy-siyosiy va mehnat faoliyatiga ijodiy yondashuv sifatida baholash mumkin. Aynan insonning fuqaroviy faolligi shaxsning to'laqonli rivojlanishiga, undagi

¹⁸ Қирғизбоев М. Сиёсатшунослик. Олий ўқув юртлири талабалари учун ўқув қўлланма. Тошкент "Янги асп авлоди" 2013 йил. 518 б.

¹⁹ Жалилов А., Муҳаммадиев У., Жўраев Қ. ва бошқ. Фуқаролик жамияти асослари: ўқув қўлланма – Тошкент, 2015, 86-бет .

imkoniyatlarning to'liq namoyon bo'lishiga xizmat qiladi. Fuqarolik pozitsiyasi hamda fuqaroviy faollikka ega bo'lish jamiyatda ro'y berayotgan barcha voqea-hodisalarni, ularning oqibatlari va mavjud muammolarning yechimini chuqur anglashni taqozo etadi. Ijtimoiy faollik tushunchasi fuqarolik jamiyati tushunchasi bilan chambarchas bog'liqdir. Bu partiyalarga a'zolikni nazarda tutuvchi siyosiy faollik, nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatida ishtirok etish, turli ijtimoiy tashabbuslar va ijtimoiy harakatlarni anglatadi. Shu ma'noda jamiyat uchun foydali bo'lgan turli dasturlar va jamoat birlashmalarida ishtirok etish ham fuqaroviy faollikka kiradi²⁰.

Siyosiy faollik to'g'risida huquqshunoslar tomonidan ta'rif berganda, siyosiy faollik bu ijtimoiy-siyosiy ko'rsatkichlardan biri bo'lib, saylovchilarning siyosiy jarayonlarga ishtirok etish darajalari va shakllaridir, deyiladi²¹.

Psixologiya sohasida siyosiy faollik; bu fuqarolarning hokimiyat bilan munosabatlarda ishtirok etish usullarini anglatadi²².

Siyosatshunoslikda esa, siyosiy faollikni shaxs va ijtimoiy guruhlarining o'z siyosiy mavqeyini yoki siyosiy atrof-muhitini o'zgartirishga qaratilgan harakatlardir, deyiladi. Siyosiy faollik tushunchasi amaliy va aqliy tarkibiy qismlarni o'zida birlashtiradi, amaliy jihatdan siyosiy munosabatlarni o'zgartirishga qaratilgan bo'lsa, aqliy jihatdan siyosiy bilim va tajribalarni to'plash, o'zaro shaxs yoki guruhlararo ma'lumot almashish masalalaridan iboratdir. Siyosiy faollik siyosiy faoliyatdagi o'zaro munosabatlarda, siyosiy jarayonlardagi o'zgarishlarda namoyon bo'ladi. Shaxsiy munosabatda shaxsning manfaati va qadriyatlariga ta'sir ko'rsatadigan turmush tarzini o'zgartirish bilan bog'liq siyosiy jarayonlardagi faol ishtiroki tushuniladi²³.

Qator ilmiy adabiyotlar ijtimoiy-siyosiy faollik tushunchasiga turli nuqtayi nazardan ta'riflar berilgan. Ularni umumlashtirgan holda bu tushunchaga quyidagicha ta'rif berish mumkin. Ijtimoiy-siyosiy faollik bu – jamiyat siyosiy hayotidagi muhim masalalarda umumjamoaviy maqsadlarga erishish uchun fuqarolar harakatlarining umumlashma ko'rinishidir. Ijtimoiy-siyosiy faollikning yana bir ko'rinishi sifatida umumjamoaviy maqsadlardan tashqari ijtimoiy guruhlar yoki tabaqaviy maqsadlarga erishishda ham namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy-siyosiy faollik – jamiyat siyosiy hayotidagi muhim masalalarda jamoaviy maqsadlarga erishish uchun fuqarolar harakatlarining umumiyligidir. Ijtimoiy faollikning funksional-tarkibiy tahlilida, jamoaviy maqsadlardan tashqari ijtimoiy guruhlar sinfiy maqsadlariga erishishda ham namoyon bo'ladi.

Faollikning eng oddiy shakli bu siyosatga qiziqishdir. Bundan faolroq shakli bu mitinglarda ishtirok etish, nutq so'zlash, siyosiy partiyalar faoliyatida faol ishtirok etish, siyosiy-ijtimoiy markazlarning faol a'zosi bo'lish, turli ijtimoiy loyihalarda qatnashish, turli ommaviy harakatlarda ishtirok etish, saylovlarda muntazam ovoz berishdir. Bugungi globallashtiruv jarayonida internet tizimida ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi yuqoridagi faoliyatlarni bevosita to'g'ridan-to'g'ri onlayn amalga oshirish imkonini beradiki, bu ham yoshlarning yanada faollashishiga turtki bo'ladigan "onlayn faollik" jumlasini keltirib chiqaradi. Onlayn siyosiy faollik bu – faol yoshlarning turli ijtimoiy tarmoqlardan foydalanib ommaviy murojaat qilishda qatnashish, saylovlarda onlayn qatnashish, siyosiy jarayonlarni turli tarmoqlarda do'stlar bilan muhokama qilish, turli davlat ahamiyatiga molik dasturlar va boshqa masalalarda faol ishtirok etish va o'z xohish, istaklarini namoyon qilishidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ушбу атама муаллифи сифатида 1980-йилларнинг иккинчи ярмида БМТнинг атроф-муҳит ва ривожланиш комиссияси раҳбари сифатида фаолият юритган Г.Х. Брунтланн (Норвегия) қайд этилади.

2. Рио-де-Жанейрская декларация по окружающей среде и развитию. 1992. URL: http://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/riodecl.

²⁰Фуқаролик жамияти асослари: ўқув қўлланма/ А. Жалилов, У. Муҳаммадиев, Қ. Жўраев ва бошқ. — Тошкент, 2015, 264-б. 90-бет

²¹https://yuridicheskaya_encyclopedia.academic.ru/

²²https://political_psychology.academic.ru/

²³Политология. Словарь. -М: РГУ. В.Н.Коновалов. 2010.

3. Жўраев Н. “Тарих фалсафасининг назарий асослари” Тошкент: 2008. 73-б.
4. Политология. Ўқув қўлланма. (муаллифлар жамоаси) Х.Қосимова 2-бўлим. 3-мавзу. А.Қодирий номидаги халқ меъроси нашриёти. "ЎАЖБНТ" маркази. -Т.: 2002. - 283 бет. 58-бет
5. Қирғизбоев М. Сиёсатшунослик. Олий ўқув юртлари талабалари учун ўқув қўлланма. Тошкент “Янги аср авлоди” 2013 йил. 518 б.
6. Қирғизбоев М. Сиёсатшунослик. Олий ўқув юртлари талабалари учун ўқув қўлланма. Тошкент “Янги аср авлоди” 2013 йил. 518 б.
7. Жалилов А., Муҳаммадиев У., Жўраев Қ. ва бошқ. Фуқаролик жамияти асослари: ўқув қўлланма – Тошкент, 2015, 86-бет .
8. Фуқаролик жамияти асослари: ўқув қўлланма/ А. Жалилов, У. Муҳаммадиев, Қ. Жўраев ва бошқ. – Тошкент, 2015, 264-б. 90-бет
9. https://juridicheskaya_encyclopediya.academic.ru/
10. https://political_psychology.academic.ru/
11. Политология. Словарь. -М: РГУ. В.Н.Коновалов. 2010.

О‘ZBEKISTONDA TALABALARNI IJTIMOY QO‘LLAB-QUVVATLASHGA QARSHI KURASH STRATEGIYALARI VA MUNOSABATLARI

Hamzayeva Shoxista Ne‘mat qizi

A.I.Gersen nomidagi Rossiya pedagogika universiteti magistranti

Annotatsiya



Psixologiya sohasidagi tadqiqotlar maktab va hayot muammolarini samarali yengish uchun o‘quvchilarning yengish strategiyalari va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash haqidagi tasavvurlarini tushunish muhimligini ta’kidlaydi. Ushbu maqolada O‘zbekistondagi oliy o‘quv yurtlari talabalari orasida eng ko‘p uchraydigan engish strategiyalari va va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish istiqbollari ko‘rib chiqiladi va tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, yengish strategiyalari, stress.

O‘zbekistonda ham talabalar o‘qish davomida turli stressli vaziyatlarga duch kelishadi. Bu muammolarni yengib o‘tishda kurash strategiyalari, ya’ni stress bilan kurashish yo‘llari, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga bo‘lgan munosabat muhim o‘rin tutadi. Universitet muhitida talabalar akademik va shaxsiy stressni kamaytirish uchun turli xil kurash strategiyalaridan foydalanishlari mumkin. Ba’zilar mas’uliyatni yengish va tashvishlarni kamaytirish uchun rejalashtirish, ma’lumot qidirish yoki o‘qish kabi faol usullarni afzal ko‘rishlari mumkin. Boshqalar salbiy his-tuyg‘ularni engillashtirish uchun chekinish, chalg‘itish yoki passiv kutish kabi passiv usullarni afzal ko‘rishlari mumkin. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga bo‘lgan munosabat ham o‘quvchilar farovonligida katta rol o‘ynaydi. Oila, do‘stlar, o‘qituvchilar va universitet hamjamiyatining yordami talabalarga akademik qiyinchiliklarni yengib o‘tishda va ularning psixologik farovonligini yaxshilashda asosiy omil bo‘lishi mumkin.

Oilaviy rishtalar va an’analar muhim ahamiyatga ega bo‘lgan O‘zbekiston sharoitida o‘quvchilar hayotida yaqinlar va qarindoshlarning ijtimoiy yordami alohida ahamiyat kasb etishi mumkin. Oilaviy qadriyatlar, o‘zaro yordam va qo‘llab-quvvatlash qiyin vaziyatlarda yordam bo‘lib xizmat qilishi va talabalarga o‘qishdagi qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi. Masalan, o‘zbekistonlik talabalar imtihonlar paytida yoki ish yuki ko‘paygan paytlarda maslahat, qo‘llab-quvvatlash yoki shunchaki ruhiy yordam olish uchun oilasiga murojaat qilishlari mumkin. Shuningdek, O‘zbekistondagi oliy o‘quv yurtlari talabalarga psixologik yordam va maslahatlar ko‘rsatishi mumkin, bu ham ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning muhim shakli hisoblanadi. Umuman olganda, yengish strategiyalari va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash O‘zbekiston talabalari hayotida muhim o‘rin tutib, ularga o‘qishdagi stressni samarali yengib o‘tishga va psixologik jihatdan sog‘lom bo‘lishiga yordam beradi. Ushbu mamlakatdagi kollej o‘quvchilari o‘rtasida yengish strategiyalari va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga bo‘lgan munosabatga ta’sir qiluvchi o‘ziga